

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish

yo'nalishi 2-kurs 202-guruh talabasi

Do'squlova Muhayyoning

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan

KURS ISHI

**Mavzu: O'QUVCHILARGA TARBIYA BERISHNING
METOD VA USULLARI**

Ilmiy rahbar:

dots.Bozorova M.

TERMIZ-2016

O'QUVCHILARGA TARBIYA BERISHNING METOD VA USULLARI

Reja:

KIRISH

- 1. O'quvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari**
- 2. O'quvchilarni tarbiyalashda sinf rahbarining o'rni**
- 3. O'quvchilarni tarbiyalashda tarbiya usullaridan
foydalanish**
- 4. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv muassasalari yosh avlodta milliy istiqdol mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yan- gicha ish uslublari asosida va ijodiy yondashmoqtsalar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zarurati alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillar, g'oyalar, ish uslublarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini qaytadan qurmoq lozimdir.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida hukumat qarorlarida, xalq ta'limi tizimidagi islohotlarda, olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqtsa.

Prezidentimiz I. A. Karimov o'zining “O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” nomli risolasida shunday deb yozgan edi: “Xalqimizning kelajagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy — davlatning o'zi. Ma'naviyat juda nozik tarbiyaviy soha. Buni o'zibo'larchilikka tashlab qo'yib bo'lmaydi.

Maqsadimizga erishishimizda, yangi jamiyat qurishimizda, siyosatda ham, iqqisodda ham, ma'naviyat sohasida ham barcha islohotlarning takdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq.

Yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarini asrab-avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi, ma'naviyat yuzasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i lozim”¹.

Bu g'oyalar O'zbekiston Respublikasi istiqlol taraqqiyotining besh tamoyili talablariga asoslanib olingan bo'lib, uning mezonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mahorati va qoidalari ham o'z aksini topgandir. “Bo'lajak avlodga: hurfikrlilik,

milliy iftixor, milliy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va ozodlik, insonparvarlik, birodarlik va hamkorlik, ilmga mehr-muhabbat, imyon va e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, madaniy merosga hurmat, adolatparvarlik va ozodlik, baynalminallik, ijodkorlik va tashabbuskorlik, tadbirkorlik va ishbilarmonlik, qonunga nisbatan itoatkorlik, mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish g'oyalariga sadoqat, musulmon diniga hurmat, Prezident va davlatni qadrlash kabi sifatlarni tarbiyalash”¹

Kishilik jamiyati taraqqiyotida har bir hunar, u yoqi bu ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq ijodiyotida, yozma yodgorlik- larda, afsona, doston, ertak, qissa, hikoyat, rivoyatlar- da hamda hurfikrli, dono, ma'rifatparvar mutafakkir- larimizning asarlarida turlicha talqin etilgan. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkonga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari, o'qituvchi va tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlovchi muhim omil — pedagogik mahoratdir.

Tarbiyaviy mahorat Oloh tomonidan in'om etilgan, tajribalar jarayonida shakllanuvchi bir yuksak fazilatdir.

Kurs ishining maqsadi o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlarini amalga oshirishda sinf rahbari faoliyatidan foydalanish

Kurs ishining vazifalari: O'qituvchi-tarbiyachining pedagogik mahorati ko'p qirrali bo'lib, u:

- bolalarga mehribon va hamkorligida;
 - o'quv-tarbiya jarayonida adolatli bo'lishida;
 - bolalarning qayg'u-hasrati, g'ami va omadsizligiga hamdard bo'lishida;
 - muomala madaniyatida;
 - chuqur bilim egasi bo'lishida;
 - o'qituvchining ruhiy holatida (samimiylik, xayri- xohlik, olijanoblik);
- jamo bilan ishlashda vaziyatni ijobiy tomonga san'atkorona yo'naltirishda namoyon bo'ladi

1. O'quvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari

Sinf rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borishi uchun faqat o'quvchilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak. Sinf xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Bolalarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

Pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmuomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlar o'qitish (dars berish) va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish (dars berish) va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan

testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni qayd etish lozimki, o'quvchilarni, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga, fanlarni o'rganishga qiziqtirishda o'qituvchining kasbini sevishi, o'z fanini mukammal bilishi, samimiy va jonkuyarligi, shu bilan birga, bolalarga hurmati va cheksiz muhabbati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biz o'qituvchining jozibasiz, shirinso'zligi va mehribonligi, ayrim hollarda o'ziga xos latofati tufayli bolalarning o'zi anglamagan holda shu o'qituvchi o'qitadigan predmetni yoqtirib qolishlari, shu fanni ishtiyoq bilan o'rganishga kirishishlarining ko'p marta guvohi bo'lganmiz.

2. O'quvchilarni tarbiyalashda sinf rahbarining o'rni

Sinf rahbarining maqsadi – har tomonlama yetuk, barkamol – ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilari qobihyatlarini toiiq namoyon etishlari uchun yetarh pedagogik sharoit yaratishdir. Bunda Ta'lim muassasalari pedagogik va o'quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish

O'quvchilarda tarbiyalashda sinf rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

– yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy tarxiiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariiy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliiy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishidir;

– shaxsning aqliy, ahloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishi;

– yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi 'issini uyg'otish;

– o'quvchilarni milliy, umuminsoniyy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviyy merosi bilan tanishtirish, madaniyy hamda dunyoviyy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

– har bir o'quvchini bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlar uchun shart-sharoitlar yaratish;

– insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, birg'birini tushunadigan, mehribonlik, shaftaqlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuxmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim;

– vatanparvarlik, dunyoviyy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat – muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi

uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

– qonuniy jamoa ahloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

– mustaqil respublikamiz O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va holisona baho berishga o'rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatni to'g'ri tushuntirmog'i kerak.

– turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

– sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

– yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish;

– barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o'rgatish;

– o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish;

– insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-ahloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

– marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi xikmat, o'g'it va nasihatlarini o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

– tabiatga to'g'ri munosabatning mohiyatini, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo'yicha bilimlar berish;

– ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

– o'z-o'zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va xurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, ma'naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

– yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, yaxshini-yomondan ajrata olish bilimiga ega bo'lishini tushuntirish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

– o'quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;

– darslarda ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

– odob-ahloqqa xos sifatlarni o'quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

– o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

– ahloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari bo'lishi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi. Bolalarni tarbiyalashda (o'quvchi) o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

– tarbiyaning o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;

– o'quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o'rganish;

– o'qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'at va mahorati;

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, tabiatda, baxs-munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagoglarning mustaqillikni tarbiyalash vazifalarini hal qilishga sarflagan kuch-gayrati o'quvchilarning ruhiy-fiziologik kayfiyatiga mutanosibdir. Agar shaxslar mustaqil tayyorgarlikni o'z faoliyati zanjiri-ridagi tabiiy bugin sifatida qabul kilsalar, pedagoglar tomonidan ham, shaxslar tomonidan ham katta kuch-gayrat sarflash talab etilmaydi. Aksincha, mashg'ulotga yomon tayyorgarlik ko'rish hamma uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tugdiradi. Tarbiyachining o'quv muassasasi o'quvchilariga irodaviy ta'sir ko'rsatishi talab etiladi, ularning esa o'z organizmlari va ruhiyatlarining a hvolini muayyan faoliyatga yo'naltirish uchun irodaviy zo'riqishlariga tugri keladi. Har qanday holatda tarbiyachi tomonidan ham, o'quvchilar tomonidan ham ko'p yoqi oz midorda kuch-gayrat sarf etishni talab

etadigan vaziyatlar vujudga keladi. Mustaqil tayyorgarlik davomida ta'lim muassasalarining o'quvchilari mustaqil faoliyatining u yoqi bu ko'nikmasi shakllanayotganda ham huddi shunday vaziyatlar vujudga keladi. Bu vaziyatni zarur tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik ji hatdan maqsadga muvofik holatga aylantirish tarbiyachining ma horatini bildiradi.

O'z-o'zini tarbiyalash o'z ustida ongli va rejali ish olib borish, jamiyat va rivojlanish shaxsiy dasturi talablarga javob beruvchi xususiyat va sifatlarni shakllantirishga yo'natirilgandir. O'z-o'zini tarbiyalash tarbiya jarayonida shakllanadi.

Bu usullarni shartli ravishda 2 guruhga bo'lish mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsining o'z-o'zini anglashdan boshlanadi. Buning uchun quyidagi usullar qo'llaniladi. Ular 1-guruhga tegishli:

O'z-o'zini kuzatish ;

Taqqoslash;

O'z-o'zini tahlil qilish;

Empatiya;

O'z-o'zini baholash.

Bu usullarning barchasi o'z-o'zini anglash saviyasini o'stirishni maromlashtiradi. Bu besh usul yordamida shaxsni o'z-o'zini baholashi amalga oshiriladi. Qolgan usullar o'z-o'zini tarbiyalash uchun qo'llaniladi:

O'z-o'zini tanqid qilish;

O'z-o'ziga majburiyat yuklash;

O'z-o'zini boshqarish;

O'z-o'ziga buyruq berish;

O'z-o'zini jazolash;

O'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish;

O'ziga ishonch.

3. O'quvchilarni tarbiyalashda tarbiya usullaridan foydalanish

Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, katta bo'lib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmaslik lozim.

O'qituvchi-do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsatadilar.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar-bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar, tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

Demak, tarbiya metodi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Shaxsni shakllantirish maqsadida, bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun tarbiya metodlari ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya metodlarini tarbiya usullari, deb ham yuritiladi.

Ta'lim metodlari, o'qituvchi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyushtirmoqda. Bolalarga ish bo'lib berishdan oldin u lattani qanday qilib xo'llash, partalarni va polni artish haqida gapirib, ko'rsatib beradi. O'qituvchining so'zi bu erda uslub bo'lib hisoblanadi. Metod va uslub bir-biri bilan o'zaro bog'liq va pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-biriga o'tib turishi mumkin.

O'quvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan, sinf majlisi, yig'ilishi, ertalabki saflanish, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali qo'llanmalar, kitoblar,

radio, televidenie). Yana o`quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari ham tarbiya vositasi bo`lishi mumkin. Kinofil`mlar, san`at asarlari, o`qituvchining jonli so`zi, bolalar o`yini, mehnat, sport, badiiy havaskorlik, ijtimoiy va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo`lishi mumkin. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o`qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo`lishi uchun o`qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o`qilgan kitoblarni muhokamasini uyushtirishlari lozim.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog`liq.

Tarbiyachilar ta`sir etishning bola shaxsiyatiga maqbul metodni, tanlab olishlari, uning shaxsini o`zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya metodlari har bir bolaga, bolalalar jamoasiga alohida munosabatda bo`lishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o`qituvchi yakka o`quvchi yoqi sinf jamoasi manfaati yo`lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o`quvchilarning yosh va individual hususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat harakterini hisobga olgan holda ta`sir etishning turli-tuman metod, uslub va shakllarini majmuasiga tarbiya usuli deyiladi. Tarbiyaning metodlari, vositalari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o`zini oqlagan urf-odatlar an`anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o`z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo`ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari

Xalq pedagogikasi chinakam o`zbekcha axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o`zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalaridan foydalaniladi, bu metod, vositalar nihoyatda rang-barang bo`lib, ko`p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o`z ta`sirini o`tkazgan.

Xalq pedagogikasida qoʻllanilgan juda xima-xil tarbiya metodlari quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (oʻrganish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr soʻrash, yaxshiliklar haqida soʻzlash, oʻrnak boʻlish).
3. Nasihat berish, oʻgit (undash, koʻndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak- istak bildirish, maʼqullash, raxmat aytish, duo qilish, oq yoʻl tilash va hokazolar).
4. qoralash va jazo (taʼqiqlash, taʼna, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qoʻrqitish, nafratlantirish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan toʻrt xil metod umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna metodidan foydalanadi, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga eʼtibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, oʻgiti orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga yetadigan boʻlishadi. Bordi-yu unda ham bolalar tushunishmasa, yoqi tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazolash metodlaridan foydalanishga toʻgʻri kelgan. Lekin bu soʻngi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni soʻnggi chora, aniqrogʻi kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy taʼsirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, xasharlar, turli gurunglar (choyxona, toʻy marosimlari) sayllar, turli nishonlashlar (tugʻilgan kunni nishonlash, yigitlar bazmi, qizlar bazmi), musobaqalar, turli marosim va boshqalar oʻziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan.

Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urugʻi oradan oʻn yillar oʻtgach unib chiqadi, buni ilmiy asoslab oldindan koʻra bilish kerak.

Tarbiya metodlarini oʻrganish, tahlil qilish, bu metodlardan pedagogik jarayonda foydalanish koʻnikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun

ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo`lib olamiz: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar, faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish metodlari, o`z-o`zini tarbiyalash metodlari hamda rag`batlantirish usullari, jazolash metodlari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar

Bu guruhga o`quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e`tiqodni, ma`naviy va siyosiy g`oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta`sir ko`rsatish metodlari kiradi.

Bu guruh metodlarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o`quvchilar ongiga qanday talablar qo`yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko`maklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar ishlatiladi.

O`quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya`ni davlatni ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko`p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning mohiyati o`quvchiga qo`yilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritadi va o`quvchilarga duyoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni milliy g`ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o`quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o`z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog`langanligi, u yashash va axloq me`yorlariga ongli rioya qilishi, mehnat va jamoada faollikni, ma`naviy etuklik haqida axborot beriladi. Bunda davlat bayrog`i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o`quvchilarga bayroq, madhiya, konstitutsiya haqida tegishli ma`lumotlar beriladi.

O`quvchilarga xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya`ni o`zining Vatan oldidagi huquq va burchlarini bilish, ularga qat`iy amal qilish, qonunchilik, umumbashariy axloq me`yorlari buzilishiga murosasiz munosabatda bo`lish tushuniladi.

Suhbat va hikoya. O`quvchi shaxsini g`oyaviy va axloqiy shakllantirishda o`qituvchining jonli so`zi eng ta`sirli metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg`otishning suhbat mazmuniga bo`lgan munosabatlarini va suhbatdan ko`tilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Suhbat jonli, ommaviy, ishonarli bo`lishi katta ahamiyatga ega. Suhbat metodi sifatida o`quvchilarning hayoti, fan va texnika, etika-estetika va boshqa sohalardagi tasavvur va tushunchalari doirasini kengaytirishga yordam beradi. Suhbat samarasini o`quvchilarning ijobiy yoqi salbiy javoblariga qarab bilish mumkin.

Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: etik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o`zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go`zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go`zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta`lim va bilishga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o`quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uyg`otish, ularning fikrlarini tinglash, suhbatda faol qatnashishga erishish, ya`ni o`quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish, mavzu bo`yicha o`z bilimlarini tahlil qilishga, tortishishga va haqiqatni anglashga erishishlari juda muhimdir.

Hikoya. O`quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to`liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san`at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televidenie, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli manba bo`ladi. Suhbat ham, hikoya ham o`quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so`zlar orqali o`tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o`quvchilarning o`zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqliligi ta`minlanadi, o`quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. O`qituvchi suhbat mavzusini oldindan e`lon qilib, masalan: mehnatsevarlik yoqi rostgo`ylik, halollik

mavzularida suhbat o`tkazish uchun mavzuga oid maqolalar, matallar va maqolalar to`plashni topshiradi, bunda o`quvchilarning o`tkaziladigan tadbirda faolliklari yanada ortadi.

Namuna. O`quvchilar o`z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko`rishlari, o`qituvchilari, ota-onalari, oilaning katta yoshli a`zolari va boshqalarning fe`l-atvor, yurish-turishida bolalarga yetarli darajada namuna ko`rsatishlari nihoyatda muhimdir.

O`qituvchining shaxsan o`zi namuna bo`lishi, ayniqsa, katta ta`sir ko`rsatadi. Ular o`qituvchining darsda va hayotda o`zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o`z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O`quvchilar yaqin kishilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba`zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun o`qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o`zlarini tuta bilishlari kerak, chunki qayerda bo`lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so`zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo`lmasligi kerak. Katta yoshdagi kishilarning, o`qituvchi va tarbiyachilarning bolalarga yaqin bo`lishlari, ularni o`zlariga moyil qila bilishlari, ular bilan yaqin aloqaga ko`nika olishlari ham ularning o`rnak bo`lishdagi kuchini oshirishga yordam beradi.

Respublikamizdagi ilg`or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma`lumotlar, adabiy asarlardagi, kinofil`mlardagi va spektakllardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta`sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg`orlari bilan uchrashuvlar o`tkaziladi. O`quvchilar o`z otalari va onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o`z farzandlarini hamma yaxshilardan, donolardan, ulug` kishilardan ibrat olishga da`vat qilib kelganlar. Masalan: "Qush uyasida

ko`rganini qiladi". Juda oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham faxmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq, uyingda tartibli bo`l, aks holda bolang ko`chada tartibsiz bo`ladi. Bola oldida birovlarining g`iybatini qilma, bolang g`iybatchi bo`ladi, demoqchi.

Bunga o`xshash fikrlarni yana ko`plab keltirish mumkin.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish metodlari

Bola rivojlanishining, uning o`zligini belgilashning asosiy omili-bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshish qoidasi maktab hayotining hamma jabhalarida ta`lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi.

Faoliyat o`quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o`zlashtirishga yordam beradi, ularning mustaqilliklarini oshiradi.

O`quvchilarni birinchi sinfdan boshlab qo`llaridan kelgan ijtimoiy foydali mehnat bilan shug`ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko`pchilik, jamoa bo`lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o`rgatish metodlari

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

O`qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O`quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular orqali hosil qiladi. Odat ehtiyojga aylanadi. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko`p marotaba takrorlashni o`z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o`quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko`nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o`quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya-poydevorsiz binoga o`xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O`rgatish-ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O`rgatish bir necha izchil harakatlar yig`indisidir. O`qituvchi bu harakatlarni ko`rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim (sinfda navbatchilik qilish).

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud: faoliyatda mashq qilish; kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o`zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o`rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog`liq o`z istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo`sh vaqtdan to`g`ri foydalanish odatiga o`rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko`nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Topshiriq. O`quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo`lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O`quvchilar o`z kuchlarini umumishga sarflashga, jamoa uchun mas`uliyatni his etishga o`rganadilar. Mehnat qilish bolani karakteri va irodasini o`stiradi.

-Bola faoliyatining shakllanishida burchga mas`uliyat hissini tarbiyalash lozim.

-O`quvchilar hayotiy faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilishi zarur, qiziqarli, to`laqonli, bolalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-fodali, ijodiy, ko`ngilochar va shunga o`xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimligi, natijada o`quvchilar o`zlari yoqtirgan ishga qo`l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tuyib, o`zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo`lsinlar. Sinfdan tashqari ishlarda o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini jamoa foydasi uchun ommaviy, guruh, alohida shakllari va uslublari orqali tashkil etish mumkin. To`garak, klub ishlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, yigit va qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Talab turli vazifalarni bajarishi, ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini

ifodalashi, u yoqi bu faoliyatda bajarilishi zarur bo`lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo`lishi, turli ko`rsatma sifatida namoyon bo`lishi, u yoqi bu harakatlarga undovchi bo`lishi mumkin.

O`z-o`zini tarbiyalash metodlari

O`quvchida o`z-o`zini tarbiyalashga ehtiyoj, ya`ni o`z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo`lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo`ladi. O`quvchilarni, ayniqsa, o`rta va katta yoshdagilarni o`z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo`llash kerak.

O`z-o`zini tarbiyalash o`quvchilarning o`z-o`zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy-faollik mavqeini shakllantirishning ta`sirchan vositasidir. O`quvchilar o`qishda, tarbiyada, dam olishda o`z-o`zini tarbiyalash metodlaridan foydalanadilar, o`z-o`zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

Maktabda o`quvchilarning mustaqil faoliyati, ishi pedagogik jamoa bu ishga tayyor bo`lsagina o`qituvchilar va o`quvchilar o`rtasida o`zaro chuqur hurmat, xayrihohlik, ishonch bo`lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o`z-o`zini idora qilish tashkilotlari o`z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so`z bilan ish birga saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag`batlantirilishi e`tiborda bo`lishi kerak.

O`z-o`zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo`lganda, u o`zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko`rsata boshlagan vaqtda paydo bo`ladi. o`z-o`zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual) maslahat va ko`rsatmalar berilishi lozim. Bunda o`quvchilarning o`zlariga xatti-harakatlariga tanqidiy ruhda munosabatda bo`lishga o`rgatish juda muhimdir. O`quvchilar o`zlari muayyan vaqtda belgilangan vazifalarni baholash uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo`yadilar.

Shundan keyin vaqti-vaqti bilan o`zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa ularning o`z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas`uliyatlarni his etishlari uchun yordam beradi.

O`z-o`zini tahlil qilish. O`z shaxsini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o`ylashga o`rgatadi.

O`z-o`zini nazorat qilish uchun o`quvchi o`zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarini ortib borish va aksincha, salbiy odatlarni kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O`z-o`zini baholash. O`quvchining qobiliyatini o`z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O`z-o`zini baholash qiyin, lekin o`quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Buning uchun irodali bo`lishi, o`zining o`quvchilik ijtimoiy burchini tushunishi, o`qish va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo`lishi, ya`ni tahsil va tarbiyalanishni hohlashi, o`zini o`rtoqlarining, yaqin kishilarining ko`zi bilan ko`rish va o`z-o`zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O`z-o`zini baholash o`quvchi uchun o`zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o`ziga chetdan turib holisona baho berish, o`zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag`batlantirish va jazolash metodlari

O`qituvchi bolalarning har biri o`sib, ulg`ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo`layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o`zining olg`a siljib borayotganini ko`ra biladi, o`z-o`ziga, o`z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi, unga ishoniladi, unga quloq solishadi, u jamoaga kerak, u o`qituvchini qiziqtiradi, ular bir-birlariga ishonadilar. Bunga erishish uchun rag`batlantirish usulidan foydalanish lozim. Chunki rag`batlantirish bolaga ishonishga, unda bo`lgan qobiliyat va fazilatlarining kuchini e`tirof etishga asoslangan. Rag`batlantirish o`quvchining ko`nglini ko`taradi, quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo`lishga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag`batlantirishning quyidagi turlari qo`llanadi:

1. O`quvchining kuchi etadigan, mas`uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o`quvchi o`z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi;
2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
3. Esdalik sovg`asi (kitob, ruchka, o`quv asbobi va boshqalar);
4. Maqtov yorlig`i berish;

5. Stipendiya bilan taqdirlash;
6. Hurmat taxtasiga fotosuratni qo'yish;
7. Ma'suliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
8. Safda birinchi o'rinda turish;
9. Musobaqalarda bayroq ko'tarish;
11. Gazeta-jurnal va radio-televidiniyelarda e'lon berish.

Har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Ya'ni rag'batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi, haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslab, ularni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, rag'batlantirishga bo'lgan talabchanlikni bo'shashtirmaslik va hokazo.

Jazolash-bu tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya metodi. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo: urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi.

Maktablarda qo'llashi mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish-noma`qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Hayfsan berish-agar tanbeh va ogohlantirish ko'tilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib, unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish-qizartirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb

uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo yaxshi o'ylab qo'llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka harakterli, ya'ni bitta bo'lsin, o'quvchilarning aybiga mos, muvofiq bo'lsin, tez-tez qo'llanilmasin, jazolanuvchi ongida jazoni haqqoniy ekanligi aniq bo'lsin va ular o'z ayblarini sezsinlar. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yana oshadi. Barcha hollarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha'nini bukmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'riflab berilgan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiyaning metodini muvaffaqiyatli qo'llanishiga, bu metod mazkur sinf jamoasining tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, qo'llanilayotgan tarbiya vositalari qanchalik javob berishiga bog'liqdir

Xulosa

Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi.

Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

SHubhasiz tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. CHunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. CHunki, birinchidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoqi bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. SHu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi ro'ly o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bblalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish, bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar bilan va nimalar bilan mashg'ul bo'lib o'tkazayotgani ahamiyatsiz emas. CHunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'chani salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I. A. Karimov. «O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyoti yo'li». T., 1992 y. 70-72-betlar
2. I. A. Karimov. O'zbekiston milliy istiqlo, iqtisod, siyosat, mafko'ra. 1-tom. T., O'zbekiston. 1996 y. 76-bet.
3. Karimov I.A. Istiqlo, va ma'naviyat. — T.: O'zbekiston, 1998. 64-b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.—T.: O'zbekiston, 1998. -686 b.
5. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch». Toshkent, «Ma'naviyat», 2008 y. 36-bet.
6. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni// Barkamol avlod— O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.—T.:SHarq, 1997.-20-29 b.
7. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. -32-61 b.
8. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyavi ishlar kontseptsiyasi. Toshkent: Xalq ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 1993 yil.
9. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahovuddin Balogardon. –T.: Yozuvchi. 1993.
10. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. –T.: Fan. 1975.
11. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. O'quv qo'llanma. Toshkent, “FAN” 2008 y.
12. Mavlonova R.A., To'raev O.T., Xasanboeva O, Xolikberdiev K.M. - «Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 1998 i.
13. Musurmonova O. «Oila ma'naviyat-milliy g'urur». – Toshkent: O'qituvchi. 1999, – 200 b.
14. Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – Toshkent: O'qituvchi, 1994, – 112 b.
15. Ochilova M. Ochilova N. «O'qituvchi odobi». – Toshkent: O'qituvchi, 1993\7. – 136 b.
16. Jo'raev A.J. «Tarbiyaviy darslarni o'tish». T.: “O'qituvchi”, 1994.

17. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: “O‘qituvchi”, 1991. - 376 b.
18. Xalq rasm-rusumlari. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotining Samarqand bo‘limi, 1991. — 86.
19. Ortiq N. Yosh avlodni muqaddas g‘oyalar ruhida tarbiyalash bo‘yicha tavsiyalar. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 42 b
20. Safarov O., Maxmudov M. Oila ma‘naviyati. – T.: Ma‘naviyat, 1999.-160.
21. Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt, ... diss. - T.: 1998. - 316 b.

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.edu.uz